#Yollanma_Qotil

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_1

-Graf bilan bogʻlan, ertagayoq u yoʻq qilinishi kerak
-tushunarli janob...xizmatchi yigit buyruqni bajarish uchun chiqib ketdi.

□□□
□eshitaman
-men Graf bilan gaplashmoqchiman
□gapiraver qulogʻim senda
-ish bor...xizmatchi yigit Grafga barchasini tushuntirdi
□bu ish juda qimmat boʻladi
-bugun pulning 50%i qoʻlingda boʻladi. Sen pulni qayerga joʻnatishni aytsang boʻldi. Faqat ish ertadan kechikmasligi kerak
□ishonaver, ish sen oʻylaganingdan ham tez bitadi...Graf shunday deya telefonni oʻchirdi.

Graf-asl ismi Shohzamon boʻlgan 24 yoshli bu yigit yollanma qotil. Katta pul evaziga odam oʻldiradi. Uni hamma Graf deb taniydi. Uni faqat qotil ekanligini, Graf ekanligini bilishadiyu, hayotda aslida kim ekanligini hech kim bilmaydi. U ishni shunday puxtalik bilan bajaradiki, uni tekshirgan odam bu qotillik emas, baxtsiz hodisa degan xulosaga keladi. Yana u har safar har xil usullar bilan odam oʻldiradi. Bugun unga topshirilgan ish taniqli bir biznesmenni yoʻq qilish. Grafni oʻsha biznesmenning dushmani yolladi. Oradan 1 kun oʻtib, bir taniqli biznesmen yurak xuruji oqibatida vafot qilganligi haqida gaplar koʻpaydi. Ha Graf oʻz ishini a'lo darajada uddalagan edi.

□□□
-qoyil, sen ishni kutganimizdan ham tez va a'lo darajada bajarding, pulingni qolgan qismini qayerga joʻnataylik
□markaziy hiyobondagi katta favvora oldidan olaman. Ha Ilyos Anvarvichga salomimni yetkazib qoʻy...Graf boshqa soʻz demasdan telefonni oʻchirdi. Ha Graf ish buyurtmachisi kim ekanligini aniqlagandi. Uning odati shunaqa. Buyurtmachining kim va qanday kasb egasi ekanligini soʻramaydi. Oʻzi izlab topadi. Xizmatchi yigit Grafning oxirgi gapidan hayron boʻldi
-axir men unga xoʻjayinni ismini aytmagandimku...pul kelishilgan manzilga yetkazildi. Ilyos Anvarvichning odamlari har tomonda yurushibdi. Ular Grafning kim ekanligini aniqlashmoqchi. Graf yani Shohzamon ham hiyobonga kirib keldi. U bilardi Ilyos Anvarvichning odamlari shu yerdaligini. Graf shu yerdagi kichkina bolachalarni atrofiga yigʻdi va ularni muzqaymoq bilan mehmon qildi. Ular bilan turli oʻyinlar oʻynashga qaror qildi. U masxaraboz kiyimini topib kiydi va bolalar bilan oʻynashga kirishdi. U bolalar bilan oʻynar ekan, oʻyin davomida pul turgan joyga ham yetib kelishdi. Ana pul bitta jomadonda. U bolalar orasidan qanday tezlikda chiqqan boʻlsa, yana shunday tezlikda ortga qaytdi. Albatta pul bilan. Ilyos Anvarvichning odamlari buni xatto payqamay qolishdi. Ular pul yoʻqolganini bilishgan payt, Graf sal narida bolajonlar bilan mazza qilib oʻynardi, shu bilan birga, pulni ham, Grafni ham qoʻldan chiqargan Ilyos Anvarvichning odamlarining alamdan bir biriga baqirishayotganini maroq bilan kuzatardi. #Yollanma_Qotil

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_2

Kunlar oʻtar, Graf uchun ahyon-ahyonda ish topilar, Graf ishni xamirdan qil sugʻurgandek oson bajarardi.
Shunday kunlarning birida Grafga xat keldi. Unda bitta qizning surati, manzil va sana yozilgandi. Yonida yana pul ham bor.
demak, qurbon shu qiz, lekin yoshgina qizning oʻlimi kimga kerak boʻlib qolgan boʻlishi mumkin...Graf suratga qarab qizning mayus nigohlaridan koʻz uzolmadi. Qizni surushtirdi..."Oygul Botirova, kimsan Ravshan Botirvichning yolgʻizgina qizi. Yoshi 18da. Dunyoga keltirgan onasi vafot qilgan. Ravshan Botirvichning hozirgi ayoli Guli Ergasheva yoshi 23da"
demak, buyurtmachi oʻgay ona ham boʻlishi mumkin...Graf Oygulni 2 kundan keyin, oʻzlarining dala hovlisida oʻldirishi kerak edi. Graf qizni oʻldirishi kerak boʻlgan kun dala hovlini obdon kuzatdi
demak ichkarida bittagina xizmatkor va qiz...kompyuter orqali kuzatuv kamera tizimini oʻchirdi. Hovli atrofiga benzin quyib chiqdi. Keyin ichkariga kirdi. Ichkariga ham benzin quyib chiqdi. Ishini yakunlagach, sekin astalik bilan 2-qavatga koʻtarildi. Sababi Oygul 2-qavatdan edi. Graf zinadan chiqib ham boʻlgandi hamki, xona eshigi ochilib, Oygul chiqib keldi. Uni koʻrgan Graf turgan joyida qotdi. Xonadan oqsoqlangancha qiynalib chiqqan qiz qarshisidagi niqobli kimsani koʻrib qoʻrqib ketdi
♀kimsiz
qoʻrqma senga ziyon yetkazmayman
♀kim bor yordam bering...ovozi boricha baqirib oʻzini zina tomonga urdi qiz. Ammo 1 oyogʻini oqsab bosgani sabab, ulgurmadi Graf uni tutib qolib, ogʻzini yopdi
jim boʻl, ayttimku senga ziyon yetkazmayman...shu payt xizmatkor qiz kelib qoldi. Graf uni koʻrdi. U oldin xizmatkor qizni ham qutqarmoqchi edi, ammo qizning nigohidan hammasidan xabardor ekanligini uqqach, yonidan qurolini chiqardi va oʻylab oʻtirmasdan uni otib tashladi
♀vaxshiy, qotil meni qoʻyib yubor...Graf qoʻlidagi qurol bilan qizning boshiga 1 urib, xushidan ketgazdi va uni koʻtarib, uydan olib chiqdi. Qizni oʻzining mashinasiga yotqizgach, ortiga qaytib, dala hovliga oʻt qoʻydi.
Qizni olib uyiga qaytdi. #Yollanma_Qotil

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_3

Graf, uyiga keldi. Mashinada behush yotgan qizni, koʻtarib uyga olib kirdi va oʻz xonasini yonidagi xonaga yotqizdi. Qizga qarab turib
bu qizga oʻlim hukmini kim oʻqidi ekan, buni albatta aniqlayman. Qizning gunohi boʻlsa qizni, qiz begunoh boʻlsa buyurtmachini oʻldiraman...hayolidan oʻtgazdi. Qizga yana biroz qarab turdi va xonani tark etdi.

Hushiga kelgan Oygul atrofga qaradi. Begona joy
♀qayerdaman...oʻyladi va sekin oʻrnidan turib, xonadan chiqdi. Uning xonasining toʻgʻrisida oshxona joylashgan edi. Oʻsha tomonga yurdi. Oshxonada Graf televizor koʻrib, nimalardir yeb oʻtirardi. U eshik tomonga ortini qaratib olgani uchun, Oygulni kelayotganini koʻrmadi. Ammo Oygul

endigina oshxonaga kirayotgan edi
oʻzingga keldingmi, qorning ham ochdir, kel nimalardir yeb ol...tanish ovozni eshitgan Oygul joyida qotdi
♀siz...Graf unga oʻgirilib qarab
menga nima qilibdi...Oygulning koʻz oldiga xizmatkor qizning oʻlimi keldi va jim boʻlib qoldi...gapirmaysanmi...Graf unga tikilib turdi
♀(buncha tikiladi, koʻzlari odamni yeyman deydiya)
mayli unda oʻzing bilasan, majburlash yoʻq. Qorning ochsa ana muzlatgich...Graf yana televizorga qaradi...ha aytgancha bu yerdan qochishni hayolingga ham keltirma. Toʻgʻrirogʻi maslahat bermagan boʻlardim...Graf televizordan nigohini uzib, Oygulga sirli jilmayish qildi. Uning bu jilmayishi Oygulni battar qoʻrqitib yubordi chogʻi, bir soʻz demasdan oshxonadan chiqib ketdi. Graf uning ortidan kulgancha qarab qoldim
ahmoq qiz, hazilni jiddiy oldi...Oygul boyagi xonaga kirib eshikni qulflab oldi
♀endi nima qildim. Allohim oʻzing menga toʻgʻri yoʻl koʻrsat. #Yollanma_Qotil

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_4

Oygul xonadan chiqishga qoʻrqib qoldi. Ammo juda och edi
♀chidayman, lekin oʻsha yovuzni oldiga chiqmayman...Oygul tun yarmigacha chiday oldi xolos. Yarim tunda sekin eshikni ochdi va quloq soldi
♀hamma yoq jim-jit, demak bemalol chiqib nimadir yeb olsam boʻladi...Oygul shunday deya asta sekin oshxonaga oʻtdi. Chiroqni yoqmasdan paypaslay paypaslay muzlatgichni ochdi. Muzlatgich ichida hamma narsa bor edi. Oygul nima yiyish haqida oʻylayotgan edi, qulogʻiga kimdir shivirlab gapirdi: "Chiroqni yoqmasdan, qorongʻuda bu yerda nima qilyapsan"...bu ovozdan Oygul butun badani muzlab qolgandek boʻldi. U turgan joyida qotib qolgandek edi goʻyo. Muzlatgichni ichidan nimadir olishni ham, olmaslikni ham bilmasdi. Shu payt oshxona chirogʻi yondi va Graf
balkim muzlatgichdan oʻzingga keragini olib, eshigini yoparsan...Oygul oʻziga keldi va
♀siz ham eshitdingizmi
nimani
♀ovozni
qanaqa ovoz..Grafni oʻzini bilmaganlikka oldi
♀u menga "Chiroqni yoqmasdan, qorongʻuda bu yerda nima qilyapsan" dedi
yoʻq men hech narsa eshitmadim, mayli ovqatlanib boʻlib xonangga kirib uxla...Graf chiqib ketayotgan edi, Oygul uning qoʻlidan ushlab oldi
♀iltimos, ketmang...Graf hayron boʻlib qoʻliga qaradi. Oygul uyalganidan qoʻlini tortib oldi va yerga qarab...men qoʻrqayapman. Buni ustiga juda ochman
tushundim...Graf shunday stulga oʻtirdi va televizorni yoqdi. Oʻzini qizga etibor bermayotgandek tutib televizor tomosha qila boshladi. Ammo butun diqqati bilan qizni kuzatardi.

Grafga haqqini berdingmi
-albatta janob
xizmatkor qiz topildimi
-uning oʻligi ham, tirigi ham hech qayerda yoʻq. Menimcha Graf uni ham yoʻq qilgan koʻrinadi
juda yaxshi boʻlibdi. Bizga guvohlarni keragi yoʻq

Oygul ovqatlanib boʻlib, dasturxonni yigʻishtirdi va xonasiga kirib ketayotib
□♀haligi...
□qoʻrqma, men shu yerdaman
□♀rahmat...Oygul xonasiga kirib ketdi
□bu qizning oʻlimi kimga kerak boʻldi ekan. Buni albatta aniqlayman. Eng avvalo bu uydan ketishim kerak. Boʻlmasa, qizning hayoti xavf ostida qolishi mumkin. #Yollanma_Qotil

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_5

□□□
□alo
-Shohzamon doʻstim yaxshimisan
□yaxshiman, Donik menga uy kerak
-oʻzingni uying yaxshiku
□yaxshilikka yaxshi, ammo menga negadir yoqmiy qoldida, oʻshaning uchun yaxshiroqidan bitta uy topib bera olasanmi
-boʻldi doʻstim, yangi uyni kaliti choʻntagimda deb hisoblayver
□katta rahmat
-arzimidi, doʻst uchun shunday paytda yordam qilmasak qachon qilamiz.

-Leyla, anavi choʻloq koʻrinmaydi
-xonim, Oygul xonim dala hovlida yongʻin chiqib halok boʻldi deyishmoqda
-rostanmi, juda yaxshi boʻlibdida. Oʻzi uni 1 yoqli qilmoqchi edim. Endi navbat dadasiga. Undan ham qutilsam bu uy-joy, pullar hammasi menga qoladi...Guli ko'zguga qaragancha jilmayib qo'ydi.

Graf uyni ko'rgani bordi. Olayotgan uyi, shahar markazida joylashgan edi
-mana do'stim, eng chiroyli uy
□menga juda yoqdi, olaman
-bo'ldi, hujjatlarni hoziroq rasmiylashtirib beraman
□rahmat do'stim...Graf hamma ishni yakunlab uyga qaytdi. Oygul oshxonada nimalar bilandir band edi...xormasinlar
□♀voy keldingizmi
□ha
□♀sizdan 1 narsa iltimos qilsam maylimi
□shuning uchun nimadir tayyorlab avramoqchimiding...Graf qizga kulib qaradi. Oygul bundan uyalib yerga qaradi
□♀yo'q, shunchaki bekor o'tirmay degandim. Aslida sizdan uyimga olib borishingizni iltimos qilmoqchi edim
□hech qayerga ketmaysan...Grafning jahli chiqdi...men qachon xoxlasam o'shanda bu uydan ketasan, ungacha shu yerda yashaysan...Oygulga jahl bilan qaradi va oshxonadan chiqib ketdi. Oygul yig'lagancha uning ortidan qarab qoldi.

Oradan 1 soatcha vaqt o'tdi. Graf hamma narsalari yig'ib bo'lib, Oygulning xonasining eahigini taqillatdi
tayyor bo'ldingmi, kettik
♀men hech qayerga ketishni istamayman
Oygul ko'pam asabimga tegavermasdan aytganimni qil
♀hech qachon...Graf eshikni buzib kirdi va
kuch ishlatishga majbur qilma
♀men siz bilan ketishni istamayman...Graf qizning qo'lidan ushlab uni sudray boshlad...qo'yib yuboring, men uyimga ketishni istayman, siz bilan ketishni xoxlamayman...Grafning sabr kosasi to'ldi va yonidan qurolini chiqarib, qizning peshonasiga tiradi
yaxshisi jim bo'l. Men senga boya ham aytdim, yana aytaman, men qachon istasam o'shanda uyingga ketasan, ungacha men bilan yashaysan. Aytganimni qilmasang o'diraman...Oygulning ko'z oldiga xizmatkor qizning o'limi keldi va
♀siz
ha men, endi jim yur. #Yollanma_Qotil

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_6

Graf qizni majburan yangi uyga olib keldi
mana bu seni xonang...Oygul jimgina xonaga kirib ketdi. Graf narsalarini joylashtirib bo'lgach, uyni qulflab ko'chaga chiqib ketdi. Uning qiladigan ishi Oygulning oilasini kuzatish edi. Chunki qizning o'limi kimga kerak degan savol hali ham uni qiynamoqda edi.

Oygul Graf ketganini bilgach, sekin xonasidan chiqdi
♀xayriyat ketdi, u kelmasidan oldin ketishim kerak...u borib eshikni ochmoqchi edi, ammo eshik qulflanganini ko'rib yig'lab yubordi...yaramas, ablax. O'zini kim deb o'ylayapti. Nega meni bu yerga qamab qo'ydi. Hali kelaversin mendan ko'radi vaxshiy...Oygul yana xonasiga kirib ketdi.

Graf o'zi uchun kerakli ma'lumotlarni aniqlagach uyiga qaytdi
demak, Ravshan Botirovich egalik qilayotgan hamma narsa rahmatli ayoli Oydin Saidovadan meros qolgan. Oydin Saidova nima sababdan o'lganini hech kim bilmaydi. Oygulning haqiqiy otasi Jalol Aripov bo'lib, u hozir chet elda yashamoqda. O'gay otada ham, o'gay onada ham qizni o'ldirish uchun asos yetarli. Endi o'yinni meni qoidalarim bo'yicha o'ynaymiz. Qizning tirik ekanligini bilishgach, qaysi biri ko'proq qimirlab qolarkin. Bir ahvolini ko'raylik. Shunga qarab hammasiga oydinlik kiritib olamiz. Oydin Saidovaning sirli o'limi sababini ham aniqlash lozim. #Yollanma_Qotil

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_7

Erta tong.
bugun o'ylaganlarimni amalga oshirishni boshlaymiz....Graf shunday deya Oygulning xonasini taqillatdi...Oygul senda gapim bor
♀nima demoqchisiz...Oygul eshikni ochib unga nafrat bilan qarab turardi
bilaman hozir mendan nafratlanyapsan, ammo ishon hammasi sening foydang uchun...deya Graf unga bor gapni aytib berdi...buni ustiga oyingni nima sababdan o'lganini bilishni istamaysanmi
♀sizga qanday yordamim kerak. Buni ustiga siz mendan foydanlanmasligingizga qanday ishonay
ishon, senga ozor beradigan ish qilmayman
♀xo'p. Ishni nimadan boshlamoqchisiz
eshit....

Oradan 10 kuncha vaqt o'tdi. Ommaviy axborot vositalari, televideniya kanallarida yosh biznesmen Shohzamon Davletov taniqli tadbirkor Ravshan Botirovichning qizi Oygul Botirova bilan turmush qurmoqda va shu kabi mish-mishli gaplar aylana boshladi
-jin ursun, kim u Shohzamon deganlari, u hamma rejalarimni barbod qiladiku
-janob buyursangiz bo'ldi
-yo'q hozircha unga tegma, qani ko'raylikchi, bu yigitchaning niyati nima ekan...Ravshan Botirovich kursiga boshini tashlagancha ko'zini yumdi.

-bu ilonni bolasini o'ldi desam, bitta biznesmenni topib olibdiku
-xonim hozir butun internetda ular haqida gapirishmoqda
-o'zi bu Shohzamon deganlari nechi yosh ekan
-24 yoki 25 yosh bo'lsa kerak
-ayni muddao. Avval mana bu choldan qutilsam, keyin anavi ilonni yo'q qilaman. Keyin bu kelishgan yigit meniki bo'ladi...Oygulning o'gay onasi Guli qo'lidagi telefonga jilmaygancha qarab turardi.
#Yollanma_Qotil

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_8

♀mana aytganizni qildim, endi meni qachon uyimga yubormoqchisiz...Oygul kompyuterdan ko'zini uzmasdan nimalar bilandir band Shohzamonga gapirdi. Yigit uni eshitsa ham javob bergisi kelmadi...sizni niyatingiz meni uyimga olib borish emas edi shunaqami, sizga ham mana shu lanati molu dunyo kerak edi, ablax...yigit shaxd bilan o'rnidan turdi va qarshisidagi qizning bo'ynidan bo'g'di
zinxor, zinxor meni molu davlatga o'ch pastlar bilan tenglama, to'g'ri men bolalar uyida katta bo'lganman. Ammo molu davlatim o'zimga yetarli. Senlarga o'xshab, hashamatli uyda yashamasam, bu degani puli yo'q bechora degani emas...yigit ko'zlari qizarib qizga gapirardi. Qiz bo'lsa nafas olishga qiynalib yig'lardi. Yigit unga raxmi keldi chog'i qo'yib yubordi
o'zim aytmaguncha ko'zimga ko'rinma, ha yana aytib qo'yay bu o'yinni barchasi sen uchun. Meni seni o'ldirish uchun yollashgan edi. Ammo senga nega o'limni ravo ko'rishdi, buni aniqlamagunimcha o'lmaysan. Endi bo'lsa, xonangga yo'qol...Oygul yig'lagancha xonadan chiqib ketdi. U ketgach Shohzamon stulga holsizgina o'tirdi va yuzini qo'llari bilan berkitdi

meni kechir, men shunday qilishga majburman. Hozir senga mehribon bo'lsam, menga o'rganib qolishing mumkin. Men buni istamayman. Chunki sen eng go'zal baxtga loyiqsan. Men senga bunday baxtni berolmayman. Men qotilman. Mening hayotim qon to'kishlardan iborat. Bunday hayotni senga ravo ko'rolmayman.
♀nega, nega u menga azob beraveradi. Meni o'ldirish uchun yollangan bo'lsa, nega o'ldirib yuboravermaydi. Usiz ham bu hayotda hech kimga keragim yo'q 1 nogiron bo'lsam. Haqiqiy otam yuz o'girib ketgan. Oyim ham bu bevafo dunyoda yolg'izlatib ketdi. O'gay otam va o'gay onam ham faqat turtkilardi, masxara qilardi. Allohim o'tinaman yoningga chaqirib ol...Oygul xonasida ko'z yosh to'kkanicha o'tirardi. #Yollanma_Qotil

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_9

Shohzamon odamlar ko'z o'ngida endi biznesmen edi. U o'ziga kichik 1 ofis ochib ham oldi
jonga tegdi boru, o'zimni hayotimda tinchgina yashayversam bo'lmasmidi...u stulga suyanib o'tirar ekan kotiba qiz eshikni taqillatib qoldi...kiring
-janob siz bilan uchrashishga kelishibdi
kim ekan
-Ravshan Botirovich
kirsin....Shohzamon o'rnidan turib u yoq bu yog'ini to'g'irlagan bo'ldi. Eshik ochilib, ishonchi o'ziga haddan ziyod baland ekanligini har tomonlama ko'rsatishga harakat qiluvchi insonlardan bo'lmish Ravshan Botirovich kirib keldi
assalomu alaykum, xush kelibsiz
-vaalaykum assalom, xush vaqt bo'ling. O'zimiz bexabar kuyovimiz bo'layot ekansiz, shunga 1 xabar olay deb kelgandim
bizdan xafa bo'lmang, shu kunlarda oldingizga o'tmoqchi edik. Ammo ishlar bilan bo'lib, hech vaqt topa olmayapman
-hechqisi yo'q tushunaman...ular biroz gaplashib o'tirishdi. Ravshan Botirovichning gaplaridan Oygulni yoqtirmasligi bilinib qolardi. Shohzamon Ravshan Botirovichni kuzata turib,
biron kun kechgi payt albatta mehmonga boramiz...deb qoldi. Bu gapi Ravshan Botirovichga yoqmasa ham jilmayib qo'ya qoldi.

Oygul Shohzamonga gapirmay qo'ydi. Hatti-harakatlari qizni cho'chitdimi, yoki qo'polligi ranjitib qo'ydimi bilmaydi. Ammo Oygul unga gapirmas, yuziga ham qaramasdi. Shohzamon qizni ko'nglini ko'tarmoqchi bo'ldi va bugun ishdan ertaroq qaytdi
Oygul...qizning xonasi oldiga bordi va...tayyorlan sen bilan bir joyga boramiz...ammo qiz javob bermadi...bilaman mendan xafasan, bugun aybimni yuvmoqchiman...qiz yana jim. Yigitni oxiri sabri tugadi. Eshikni jahl bilan ochib kirdi va
men senga gapiryapman
♀xonadan chiqib keting
tayyorlan, 5 daqiqadan keyin ketamiz
♀men istamayman
aytganimni qil, bo'lmasa o'zingga yomon bo'ladi...u chiqib, mashinaga o'tirdi va qizni kuta boshladi. Oygul chiqish, chiqmaslikni rosa o'yladi. Qo'rquvi ustun keldimi bilmaydi ammo chiqishga majbur bo'ldi. #Yollanma_Qotil

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_10

Oygul jimgina mashinaga mindi. Shohzamon mashinani yurguzdi. Mashina oynasidan Oygulga qarab-qarab qo'yardi
yetib keldik...Shohzamon mashinadan tushdi. Oygul ham mashinadan tushib hayron bo'lib qoldi
♀axir bu....
senga yoqadimi yo'qmi bilmadim, biroz kayfiyatingni ko'tarish uchun olib kelgandim...aybdordek boshini egdi
♀yoqqanda qandoq, men parkka kelishni juda yaxshi ko'raman...yosh boladek xursand bo'lib gapirdi
rostanmi...yigit boshini ko'tarib kuldi....unda kettik. Bugun seni kuning bo'ladi...u shunday deganch qizning qo'lidan ushlab park ichiga yura boshladi. Oygul Shohzamonning bu ishidan uyalib, qo'lini tortdi, Shohzamon o'shanda nima qilib qo'yganini tushinib yetib uning qo'lini qo'yib yubordi. Ular park yopilguncha aylanishdi. Deyarli barcha atroksionlarda uchishdi. Oygul har safar qo'rqqanida ko'zini yumib, Shohzamonning qo'lidan ushlab olardi
♀sizga katta rahmat. Juda xursand bo'ldim
senga yoqqan bo'lsa xursandman
♀juda yoqdi. Bolaligimga qaytgandek bo'ldim. Bolaligimda har dam olish kunida oyim bilan kelardik. Oyim 7 yoshligimda vafot qilgach, bunaqa joylarga umuman kelmaganman...Oygulning ko'zlari yoshlandi
sen istagan payti yana kelishimiz mumkin...Shohzamon qizning ko'z yoshlarini artdi...faqat yig'lama...Oygul unga jilmayib qaradi. Shu payt nigohlar to'qnashdi. Shohzamon qizning qop- qora ko'zlarining asiriga aylandi go'yo. Uning tikilib qarashidan Oygulning ikki yuzi loladek qizardi. Ko'zlarini olib qochdi
♀yana 1 bor rahmat...mashina tarafga yurdi. Shohzamon ham uning ortidan bordi. Ular uyga kelgunicha 1 og'iz ham gapirishmadi. Uyga kelishlari bilan o'z xonalariga kirib ketishdi.

-Abdi, sen Graf bilan bog'lan. Bu yaramas ayol barcha rejalarimni barbod qilib, o'sha yetimcha o'g'liga qoldirmoqchi hamma merosni
-tushunarli xo'jayin...Abdi xonadan chiqib ketdi...ko'razim Farida Usmonova, o'sha yetimchangga yetisha olarmikinsan. Men shuncha harakatni nima uchun qildim. Shu boyliklar uchun. Shular uchun o'z yaqin do'stimni o'ldirdim. Uylanmagan yigit bo'lishimga qaramay erdan chiqqan ayolga yani sanga uylandim. Lekin 1gina xato qildim, o'sha yetimchangni bolalar uyiga bermasligim kerak edi. Uni ham otasini ortidan ravona qilishim kerak edi...Qodir Tohirov stulga boshini qo'ygancha shularni o'ziga o'zi past ovozda gapirardi. #Yollanma_Qotil

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_11

Farida Usmonova o'z xonasida 1ta rasmga termulgancha o'tirardi

-bolajonim, men seni shu paytgacha o'lgan deb yurardim. Tirik ekaningni 1 oy oldin bildim. Seni shu 1 oydan buyon izlamagan joyim qolmadi. Bolajonim seni albatta topaman...ayol suratdagi bolakayning yuzlaridan silab, suratni o'pib qo'ydi. Suratda Farida Usmonova, rahmatli turmush o'rtog'i va ularning farzandi aks ettirilgandi.

Shohzamon shirin uyquda yotar ekan, uning uyqusini telefonning ovozi buzdi. Uyqusirab yostig'ini yonida yotgan telefonini qaradi, lekin jiringlayotgan u emas. Birdan uning uyqusi o'chib ketdi. Ha bu o'sha eski telefoni, hamma uni Graf deya yo'qlaydigan telefoni jiringlamoqda
ertalabdan, kimga kerak bo'lib qoldim ekan...u to'ng'illagancha o'rnidan turib, javonda turgan telefonini oldi. Telefon yana jiringladi...alo
-bu Grafmi
nima kerak
-ish bor
xo'sh
-bir ayolni o'ldirish kerak, qancha tez bo'lsa shuncha yaxshi
u ayol senga nima yomonlik qildi. Yoki ayoling o'ynashing bilan tutib oldimi...Shohzamon miriqib kuldi
-gapni qisqa qil...qo'ng'iroq qilayotgan asabiy gapirdi
xo'p. Unda **** shu manzilga ma'lumotlarni va pulni tashlab ket. O'sha joydan olaman
-kelishdik...telefon o'chdi.

-Abdi nima qilding
-boya Graf bilan qo'ng'iroqlashgandim, bugun unga ma'lumotlar va pulning yarmini yetkazaman, ish tez kunlarda bitadi
-bundan juda xursandman. Undan tezroq qutulishim kerak, u yetimchasini tirikligini bilibdi, uni topmasidan burun uni yo'q qilishim zarur...Qodir Tohirov qo'lidagi Farida Usmonovaning rasmini yirtib, maydalab stoli yonida turgan axlay chelagiga tashladi.

nega nuqul xotin-qizlarni o'lishini istashadiya...Shohzamon kelishilgan manzilga ketar ekan o'yladi. U o'zi aytgan manzildan sal narida to'xtab atrofni kuzatdi. Ana devor tagida kattagina konvert turibdi. Ammo uni kuzatayotgan bo'lishsachi? Shohzamon mashinadan tushdi. Yon atrofni kuzatdi. Yo'lning chetida to'xtab turgan 3-4 ta mashinani aytmasa, hech kim yo'q. Biroq o'zi konvert oldiga borishi xavfli. U biroz turib, nima qilish kerakligini o'yladi. Shu payt narigi ko'chadan 10tacha lo'lilar chiqib kela boshlashdi
topdim...jilmayib qo'ydi u. #Yollanma_Qotil

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_12

Shohzamon ishini bitirib, uyga qaytdi. Qo'lidagilarni qo'yish uchun xonasiga kirayotgandi
♀umid qilamanki, qo'lingizdagilar kimningdir hayotiga yakun yasovchi qaror emas...Shohzamon eshik tutquchini ushlagancha joyida qotib qoldi...jimligingizga qaraganda men to'g'ri topdim...Oygul shunday deganicha Shohzamonga nafrat bilan qarab turardi

bu sen o'ylagan narsa emas
♀unda ko'rsam maylimi...Oygul konvertni olish uchun qo'l uzatdi. Ammo Shohzamon unga bergisi kelmay
Oygul ayttimku bu sen o'ylagan narsa emas
♀unda ko'rsating...Oygul konvertning 1 chetidan mahkam ushlab oldi
Oygul iltimos qo'yib yubor...Shohzamon konvertni o'zi tarafga tortdi. Oygul ham qaysarlik qilib turib oldi. Ular biroz shunday tortishib turushdi. Oqibatda konvert yirtilib, ichidagi rasm va pullar sochilib ketdi. Oygul qo'liga rasmni oldi va
♀Farida Usmonova...u Shohzamonga shunday qaradiki, Shohzamon o'zidan nafratlanib ketdi...sizga nima yetishmaydi o'zi? Yoki odam o'ldirmasdan turolmaydigan bo'lib qoldingizmi? Men sizni o'zgargansiz deb o'ylagandim. Afsus...Oygul xonasiga kirib, eshikni qulflab oldi. Shohzamon bo'lsa xona eshigi oldida o'tirib qoldi. Ko'zi boya Oygul ushlab turgan suratga tushdi. Suratni qo'liga oldi. Yuragi allanechuk bo'lib ketdi. Oldinlari bunday hisni tuymagan edi. Suratdagi ayol unga xuddi tanishdek edi.

-xonim, iltimos bu uyni tark eting, xo'jayinni niyati yaxshi emas
-menga endi baribir, yagona umidim o'g'limni topsam edi...Farida Usmonova yana qo'lidagi suratga yoshli ko'zlari bilan qaradi.

Oygul eshikni och iltimos...yarim tunda Shohzamon mast ahvolda uyiga kirib kelgan zahoti bor ovozda baqirib Oygulning xonasi oldiga o'tirib oldi
♀sizni ko'rishni xoxlamayman
meni eshit, keyin nima desang ham roziman...Oygul eshikni ochdi
♀nima deysiz
menga ishonasanmi
♀sizga qanday ishonay ayting
sen menga ishonsang, men butunlay o'zgaraman
♀ammo suratdagi ayolchi
unga hech nima qilmayman. Seni qutqargandek uniyam qutqaraman. Faqat sen mendan yuz o'girma...u qizga shunday iltijoli qaradiki, Oygulning yuragi o'rtandi
♀so'z berasizmi
chin yigitlik so'zim, sen menga ishonsang, yonimda bo'lsang men butunlay o'zgaraman
♀xo'p...Oygul unga tabassum qilib qo'ydi
ishonasana, meni tashlab ketmaysana
♀yo'q. Men hamisha siz bilanman
rahmat senga...Shohzamon Oygulni bag'riga bosdi. Oygul uning bag'ridan chiqishga qancha harakat qilmasin, buni uddalay olmadi
♀kech bo'ldi, endi borib uxlang...dedi uyalibgina. Shundagina Shohzamon uni qo'yib yuborib, o'z xonasiga ketdi. #Yollanma_Qotil

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_13

Erta tong

voy boshim....Shohzamon boshini ushlab, arang o'rnidan turdi va oshxonaga chiqdi...qayerda qoldi bu jin urgur
♀mana ichib oling...Shohzamon qarasa Oygul tabassum bilan unga dori va suv uzatib turgandi
raxmat...aybdorlardek bosh egdi
♀boshqa unaqa qilmang
xo'p...Shohzamon boshqa so'z aytmasdan xonasiga kirib ketdi.

-jonim, odamlar har xil gap so'z qilishyapti, kimsan Ravshan Botirovichdek odamning qizi nikohsiz yashamoqda deb...Guli nozlanib erining bo'yniga qo'lini tashladi
-nima qil deysan
-ularni uyga taklif qilib to'y kunini belgilashimiz kerak. Har holda o'z qizingiz bo'lmasa ham, odamlar uni sizni qizingiz deb o'ylashadi. Bunaqa gap so'zlar sizning obro'ingizga to'g'ri kelmaydi
-to'g'ri gapirding. Ularni bugunoq mehmonga taklif qilamiz. Hammasini shu bugunoq hal qilamiz...Ravshan Botirovich shunday deya qo'liga telefonni oldi. Guli rejasi amalga oshayotganidan xursand. Uning asosiy niyati Shohzamonni ko'rish. Agar iloji bo'lsa uni o'z qarmog'iga ildirish.

Shohzamon Oygulga gapirishga negadir uyaldi. Chunki kecha nima bo'lganini eslolmaydi. Mast bo'lib biror yomon gap aytib qo'ydim degan hayolda. Shuning uchun jimgina ofisga ketdi. Xonasida o'tirib kechagi kunni eslashga harakat qilar ekan, hayollarini kotibaning ovozi buzdi
-janob, sizni oldingizga Ravshan Botirovich keldi
kirsin...ertalabdan nima uchun keldi ekan....eshik ochilib o'ziga yarashmagan tabassum bilan Ravshan Botirovich kirib keldi...assalomu alaykum
-vaalaykum assalom kuyov to'ra
keling xizmat
-rasmiyatchilikni qo'y, axir endi ota boladek bo'lishimiz kerak...u shunday deya Shohzamonni bag'riga bosib qo'ydi
ertalabdan har holda sog'inganizdan kelmagandirsiz...Shohzamon uni o'zidan itarib
-sizlarni bugun kechga mehmonga chaqiryapmiz. Shuni shaxsan o'zim aytish uchun kelgandim
tushunarli
-albatta boringlar
siz taklif qilasizu biz rad qilamizmi, albatta boramiz...Ravshan Botirovich borishlarini qayta qayta takrorlab ketdi.
bu qarri tulki yana nimalarni boshladi ekan, bu yerda anavi ilonni ham qo'li bor shekilli.
#Yollanma_Qotil

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_14

Shohzamon har xil shirinliklar va chiroyli guldasta bilan uyga qaytdi
Oygul...uyga kirishi bilan uni chaqirdi
♀keldingizmi...oshxonadan chiqib keldi...voy bular mengami
ha, hammasi senga...Shohzamon ularni qizga berib xonasiga ketayotib...ha tayyorlan bir past turib mehmonga boramiz
♀qayoqqa

borganda ko'rasan...Shohzamon shunday degancha xonasiga kirib ketdi. Oygul hayron bo'lgancha ortidan qarab qolaverdi. Oradan 1 soat o'tib Shohzamon xonasidan chiqib keldi
Oygul tayyormisan...Oygul hamon oshxonada o'tirardi. Shohzamon unga qarab...haliyam tayyormasmisan
♀mehmonga kiyadigan kiyimim yoʻq...Oygul yerga qarab gapirdi. Shohzamon unga qarab turdi va
yur...deya qoʻlidan ushlab keta boshladi
♀qayoqqa
jim yur, borganda koʻrasan dedimku...Shohzamon mashinani avval kiyim doʻkoniga, keyin salonga haydadi. U Oygul uchun libosni oʻzi tanladi. Shohzamon tanlagan qora libos Oygulga juda yarashgandi. Salonda ham uning sochini yoyib, uchlarini jingalak qilib, yengilgina pardoz qilib qoʻyishdi. Oygul juda chiroyli boʻlgandi. Shohzamon unga 1 lahza tikilib qoldi
buncha goʻzal
♀kettikmi...uyalibgina gapirdi. Shohzamon hayollarini yigʻib mashina eshigini ochib berdi. Oʻzi ham oʻrnini egallab mashinani yurguzdi. 20 daqiqa yurushgandan soʻng
yetib keldik...Oygul mashina derazasidan qarshisidagi uyga qarab qoldi...nimadir boʻldimi
♀bu yerga nima sababdan keldik? Uyga qaytarib olib kelmaganiz aniq
bugun dadang kelgandi, bizni kechki ovqatga taklif qildi
♀demak koʻz boʻyamachilik uchun bu yerdamiz
Oygul ozgina sabr qil...Shohzamon uning qoʻlini ushladi. Oygul hech nima demadi. Ular birgalikda uyga kirishdi. Shohzamon qoʻlini Oygulning belidan oʻtkazdi. Oygul unga oʻzgacha qarab qoʻydi
oʻzimizni baxtli juftlik qilib koʻrsatishimiz kerak..qulogʻiga shivirladi. Shu gapidan keyin Oygul oʻzini baxtlidek koʻrsata boshladi. Ular uyga kirib kelishgandan buyon Guli Shohzamondan koʻz uza olmadi
-xush kelibsizlar...Ravshan Botirovich ularni quchoq ochib kutib oldi
-xush kelibsizlar, Oygul baxti kulgan qiz ekansan, qara shunday kelishgan yigitga turmushga chiqayapsan
♀ha chindan baxtliman, Shohzamon akam bilan bir-birimizni juda sevamiz...Oygul Shohzamonga tabassum bilan qarab qoʻydi. Shohzamon bunga javoban Oygulning yuzidan oʻpib qoʻydi. Ularning bu qiligʻidan Gulining tepa sochi tikka boʻldi
-( hali koʻramiz, senlarni yoʻq qilib, bu kelishgan yigitni oʻzimniki qilib olmasammi)...koʻzini suzib Shohzamonga qarab qoʻydi. Shohzamon atrofga sinchikovlik bilan qarar, uydagi hammaning harakatlarini diqqat bilan kuzatardi. Ravshan Botirovich ham, Guli ham oʻzini ularning oldida sipo tutishga ming harakat qilishmasin, baribir soxtaliklari bilinib qolardi. Guli kechki ovqat tugaguncha Shohzamondan koʻzini uzmadi. Tabiiyki, buni Oygul ham sezdi. Gulini oʻldirib qoʻygisi kelar, lekin nega bunaqa qilayotganini oʻzi ham tushunmasdi. Oʻzi bilmagan holda Shohzamonni Gulidan rashk qilardi. #Yollanma_Qotil

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_15

Mehmondorchilik soxtaliklarga toʻla boʻldi. Shohzamon va Oygulni kuzata turib Ravshan Botirovich
-kuyov bola, toʻyni qachonga belgiladinglar endi...Guli ham jilmayguncha ulardan koʻzini uzmay qarab turardi
kelasi oyda InshaAlloh, toʻy kuni belgilangandan 1-navbatda sizga taklifnoma olib kelamiz shunaqami sevgilim...u Oygulga mehr nigohlari bilan qarab qoʻydi. Oʻsha paytda Guli alamdan yonib ketay dedi (ahmoq). Shohzamon va Oygul ular bilan xayrlashib, uyga qaytishdi
♀rosti kutmagandim

nimani
♀ularning bunaqa munosabatini
bari soxta
♀ularning niyati nima oʻzi
tez orada buni albatta bilib olamiz.

-bu choʻloqni koʻrdingizmi, qanday qilib, shunaqa boy yigitni ilintirib oldi ekana
-bunisini bilmadim, ammo ikkalasini ham yoʻq qilishim kerak. Boʻlmasa, shuncha mol-davlatdan ayrilib qolishim aniq...Ravshan Botirovich, endi Shohzamondan qutulish payiga tushib qoldi.

Ertasi kuni. Shohzamon koʻchaga chiqib ketayotgan edi
♀oʻylaymanki, menga bergan vadangiz esingizda...Shohzamon unga savol nazari bilan qaradi...u ayolni oʻldirmayman degandingiz
ha, bumi albatta esimda...aslida, umuman esida yoʻq edi
♀ularning hayotini saqlab qolasiza
sen u ayolni tanisanmi
♀albatta, ular oyimning biznes hamkori va dugonasi boʻlganlar
tushunarli, unda oʻsha ayolni uyga olib, kelaman...Shohzamon koʻchaga chiqib ketdi.

-axir qanaqasiga bunaqa boʻlishi mumkin
-xonim, bizda Shamsbek ismli bola boʻlmagan
-yaxshilab eslab koʻring, 19 yil oldin darvozangiz oldida qoldirib ketilgan...Farida Usmonova bolalar uyi mudirasi xonasida koʻzida yosh bilan mudiradan najot kutardi
-xonim, 19 yil oldin bizning darvozamiz oldiga 5 yasharli 6 ta bola tashlab ketilgan. Ularning 2 tasi qiz bola, 4 tasi oʻgʻil bola. Men 3 tasini aniq manzilini bilaman. 1 tasini boʻlsa aniq qayerda ekanligini bilmayman xatto
-ahamiyatsiz, ismi familiyasini yozib bering...Farida Usmonova xuddi farzandini topgandek xursand boʻlib gapirdi. Mudira 1 varoq qogʻozga 4 ta ism-familiya yozib berdi. Farida Usmonova mudiraga qayta qayta rahmat aytib bolalar uyini tark etdi. #Yollanma_Qotil

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_16

Farida Usmonova roʻyhatdagi yigitlarni birin ketin surishtirishni boshladi
-Asliddin Davletov, bank hodimi yoshi 24da...Farida Usmonova u ishlaydigan bankka oddiy mijoz sifatida bordi. Oʻsha yigit bilan uchrashdi. Ammo yigit uning qalbiga yaqindek tuyulmadi. Xafsalasi pir boʻlib, bankdan chiqdi. Katta yoʻldan oʻtayotgan payt, mashina urib ketishiga oz qoldi. Uni kimdir qutqarib qoldi
tuzukmisiz xonim
-raxmat...Farida Usmonova yigitga qarab, qalbi allanechuk boʻlib ketdi
yuring sizni kuzatib qoʻyaman
-raxmat, oʻzimning mashinam bor
xoʻp...Shohzamon Farida Usmonovadan biroz uzoqlashgach...biror kun siz bilan muhim masalada

gaplashib olsak degandim
-bemalol, mana tashrif qogʻozim...Shohzamon tashrif qogʻozga qarab kuldi
sizni qanday topishni bilaman...u koʻziga koʻzoynagini taqib, u yerdan ketdi. Farida Usmonova uning ortidan qaragancha qoldi
-kim bu yigit, nega meni qutqardi. Eng qizigʻi nega gʻayri oddiy kiyinib olgan

♀keldingizmi...Shohzamon eshikdan kirishi bilan Oygul shu savolni berdi
kelganga oʻxshaymanmi...Shohzamon engsasini qotirib gapirdi. Oygul uni kiyimini koʻrib
♀bu nima ahvol
zerikdim, shunga kiyib olgandim...Shohzamon derazadan koʻchaga qarab qoʻydi
♀yana nimani boshladingiz
jim...Shohzamon barmogʻini labiga bosdi. U tashqarini yana biroz kuzatdi..hayriyat uddaladim...u yelkasidan togʻ agʻdarilgandek deraza yonidagi kresloga oʻzini tashladi
♀balkim endi menga tushuntirib berasiz
senga bergan vadamni bajarish uchun harakatdaman...Shohzamon Oygulga jilmaydi
♀voy rostanmi...Oygul yosh boladek xursand boʻlib ketdi
ha, qalbim_dunyochasi axir senga vada berganman...Shohzamon oʻrnidan turdi va Oygulning qoʻlidan tutdi...Oygul sen ham 1 narsaga vada bera olasanmi
♀aytib koʻringchi
Farida Usmonovani olib kelganimdan soʻng, u bilan bu yerdan ketasizlar
♀nima
ha, chet elga ketasizlar. 1 muddat oʻsha taraflarda boʻlsangizlar sizlar uchun xavfsiz boʻladi
♀sizchi
mendan xavotir olma. Men hamma ishlarimni yakunlab, ortingdan boraman
♀vada berasizmi
albatta, ungacha sen aqlli qiz boʻlib, meni kutasan. Ha oyogʻingni operatsiya orqali davolasa boʻlarkan. Internetda oʻqigandim. Operatsiya qildirasan
♀operatsiya payti siz yonimda boʻlishingizni istayman
senga soʻz beraman, albatta yetib boraman...Shohzamon Oygulni mexr bilan bagʻriga bosdi.
**#Yollanma_Qotil**

**#Muallif_Mohira_Ikromovna**

**#N_17**

**Farida Usmonova bankdan chiqib, toʻgʻri uyiga qaytdi. Hayoli uni qutqargan oʻsha yigitda -kim boʻldi ekan bu yigit, u menga juda tanishdek tuyulyapti.**

**-Abdi Graf bilan bogʻlandingmi**
**-afsuski yoʻq, uning raqami oʻchirilgan beryapti...Qodir Tohirov stolga 1 urdi**
**-ming la'nat, Faridani 1 yoqli qilgach, oʻsha Graf deganlarini ham yoʻq qilaman. Qodir Tohirov bilan oʻynashish qanday boʻlishini unga koʻrsatib qoʻyaman.**

**Ravshan Botirovich ham Shohzamondan qutilish rejasini tuzmoqda edi.**

**Qodir Tohirov endi oʻzi Farida Usmonovani oʻldirish uchun chora izlay boshladi. Ishni uning mashinasining tormizini buzdirib qoʻyishdan boshladi. Farida Usmonova koʻchaga yana Shohzamonni koʻrish umidida chiqdi. Tabiiyki Shohzamon ham ayolni kuzatib borardi. Farida Usmonova kecha uni koʻrgan joyiga borib, mashinani toʻxtatmoqchi boʻldi, ammo tormiz ishlamayotgan edi. Shohzamon buni sezdi. U ham Farida Usmonovaning ortidan ketdi. Farida Usmonova qayerga haydashni bilmasdan, toʻgʻriga ketaverdi. Farida Usmonova mashinani toʻxtatmasa, yoʻldan chiqib ketishi mumkin edi, shu sababli Shohzamon Farida Usmonovaning mashinasiga oʻzining mashinasini olib borib urdi. Farida Usmonovaning mashinasi yoʻl chetiga chiqib toʻxtadi. Shohzamon pachoq boʻlgan mashinasidan tushib, Farida Usmonovaning yoniga bordi**
**□tuzukmisiz xonim...Farida Usmonova Shohzamonni koʻrib negadir xursand boʻlib ketdi**
**-bu safar ham meni qutqarib qoldingiz oʻgʻlim, xuddi najotkor farishtaga oʻxshaysiz**
**□kettik, bu yerda qolish siz uchun xavfli**
**-nima□, nimadir boʻldimi**
**□keyin, tushuntirib beraman, hozir sizni bu yerdan olib ketishim kerak...Shohzamon shunday deya Farida Usmonovani mashinasiga oʻtqazdi va mashinani yurguzdi. Shohzamon yoʻlda Oygulga qoʻngʻiroq qildi**
**□□□**
**□men vadamni bajardim, kechga qarab uyga boramiz**
**□♀nega hozir emas**
**□buni hozir iloji yoʻq**
**□♀tushunarli. Katta rahmat sizga...Shohzamon telefonni oʻchirdi. qalbim_dunyochasi Mashinasining oldi pachoq boʻlganiga qaramay katta tezlikda hayday boshladi. Chunki ularni Qodir Tohirovning odamlari taqib qila boshlagan edi**
**-men uchun joninggizni xatarga qoʻyganizga qaraganda, meni asrab qolishizni juda qadrli insoningiz iltimos qilgan koʻrinadi**
**□siz oʻylaganingizdanda qadrli** #Yollanma_Qotil

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_18

Shohzamon, ustalik bilan taqibchilardan qochib qutuldi. Endi bemalol uyga qaytsa ham boʻladi.

-nima deding□
-kechiring xoʻjayin...Abdi Qodir Tohirovdan qayta qayta kechirim soʻrardi
-u yigitni kimligini zudlik bilan aniqlanglar
-xoʻp boʻladi...Abdi tezlik bilan xonani tark etdi
-kim boʻlsa ham bekor men bilan oʻynashdi.

□biz keldik...Shohzamon uyga kirishi bilan baland ovozda gapirdi. Uning ovozini eshitgan Oygul oshxonadan shoshib chiqib keldi
□♀Farida xola...Farida Usmonovani bagʻriga oʻzini otdi
-Oygul qizim□, sen
□♀ha xolajon men...Oygul Farida Usmonovani bagʻriga bosib turar ekan, Shohzamonga rahmat degandek tabassum qildi. Shohzamonga shu tabassumning oʻzi yetarli boʻldi. U sekin xonasiga kirib

ketdi
-qizim, sen bu yerda nima qilayapsan, bu yigit kim
♀xolajon, sizga hammasini 1 boshidan tushintirib beraman albatta, oldin ovqatlanib oling...Oygul shunday deya Farida Usmonovani dasturxonga boshladi.

-xoʻjayin, yigit kimligini aniqladik. Uning ismi Shohzamon Davletov, yosh biznesmen. Ravshan Botirovichning boʻlajak kuyovi ekan
-nima Ravshanni kuyovi. Bu juda yaxshi boʻlibdi. Men Ravshan bilan uchrashib, maslahatlashib olishimga toʻgʻri kelarkan unda...Qodir Tohirov shu gaplarni aytar ekan, qoʻl telefonini chiqarib Ravshan Botirovichga qoʻngʻiroq qildi.

-alo
-alo Ravshan doʻstim yaxshimisan
-eee Qodirboy bormilar, koʻrinmay kettingku
-bilasanku, ishim koʻp. Oʻzingda nima gaplar. Ishlaring yaxshi ketayapdimi
-ishku yaxshi, ammo mol mulk masalasi hal boʻlmayaptida
-eshitdim, eshitdim. Qizing turmushga chiqayotganmish?
-afsuski shunday, toʻy boʻlmasidan oldin, ularni yoʻq qilishim kerak...Qodir Tohirov Ravshan Botirovichning bu soʻzlarini eshitib xursand boʻldi
-shu desang doʻstim...Qodir Tohirov oʻz rejasini Ravshan Botirovichga oshkor qildi. Rejani eshitgan Ravshan Botirovichning yuzida kulgu paydo boʻldi
-kelishdik doʻstim. qalbim_dunyochasi 1 oʻq bilan 1 nechta quyonni uramiz ekanda
-albatta qadrdonim...Qodir Tohirov Ravshan Botirvich unga xayrihoh ekanligidan mamnun boʻldi.
#Yollanma_Qotil

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_19

Oygul vadang yodingdami
♀albatta...Farida Usmonova ularga hayron boʻlib qaradi...ha sizga aytish esimdan chiqibdi xolajon, ertaga joʻnab ketyapmiz. Siz va men
-sizchi oʻgʻlim...Farida Usmonova Shohzamonga qaradi
mening ozroq ishlarim bor, ularni yakunlab izlaringizdan boraman
♀ha biz qayerga ketayapmiz, bilsam boʻladimi
bunisi sir...ular kechki ovqatni ham yeb boʻlishdi. Shohzamon har doimgidek xonasiga kirib ketdi. Oygul oshxonani tartibga keltirib qoʻydi. Keyin Farida Usmonova bilan birgalikda xonasiga kirishdi. Ular tuni bilan suhbatlashib chiqishdi. Oygul Farida Usmonovaga bor gapni aytib berdi.

Ertasi kuni
-xoʻjayin, Shohzamon Davletov Farida Usmonovaning oʻgʻli Shamsbek Usmonov ekan
-nima
-ha xoʻjayin, mana malumotlari...Abdi Qodir Tohirovga qoʻlidagi qogʻozlarni uzatdi
-juda yaxshi boʻlibdi...Qodir Tohirov qoʻlidagi qogʻozlarga qarab kulib qoʻydi.

Oygul, zarur narsalaringizni yig‘ib, tayyor turinglar, mashina yuboraman
♀xo‘p...Oygul Shohzamonga oxirgi marta ko‘rayotgandek qarab turardi
nima bo‘ldi, nega unaqa qarayapsan
♀shunchaki o‘zim
tez kunlarda ortingdan boraman...Shohzamon Oygulni bag‘riga bosdi...men borguncha yig‘lmasdan aqlli qiz bo‘lib yur
♀xo‘p...Shohzamonning ham qalbi allanechuk bo‘lib ketdi. Uydan chiqib ketar ekan, qayta qayta ortiga qarab qo‘ydi.

-Qodir do‘stim yaxshimisan
-kel Ravshan kel, qani o‘tir
-shunday qilib bugun biz uchun hal qiluvchi kun de do‘stim
-albatta Ravshan, albatta. Abdi
-labbay xo‘jayin...xonaga Abdi kirib keldi
-hammasi tayyormi
-ha xo‘jayin tayyor
-unda qiz va ayolni aytilgan joyga olib bor
-xo‘p bo‘ladi xo‘jayin...Abdi chiqib ketdi.

mening uyimga mashina yuboring
-xo‘p bo‘ladi xo‘jayin...kotiba qiz chiqib ketdi. Shohzamon stulda o‘tirgancha hayolga toldi...os qoldi, hammasini yakunlagach, uni ortidan boraman, qo‘lini so‘rayman. Rozi bo‘lsa turmush quramiz. Birga yashaymiz.

Eshik taqilladi
♀keldilar shekilli, xola tayyormisiz...Oygul shunday deya eshikni ochdi. Eshik oldida 1 nechta niqoblangan kimsalar turishardi. Oygul ularni ko‘rib qo‘rqib ketdi. Eshikni yopib qo‘ymoqchi edi, ulgurmadi. Niqoblanganlar uyga bostirib kirib, qalbim_dunyochasi Oygul va Farida Usmonovani xushidan ketirib olib ketishdi.

-xo‘jayin, buni sizga olib kelishibdi...kotiba Shohzamonga konvert uzatdi
rahmat...Shohzamon konvertni qo‘liga olib ochdi va qotib qoldi. Konvertdan 1 nechta suratlar va 1ta xat chiqdi. Suratlarda qo‘l oyog‘i bog‘langan Oygul va Farida Usmonova, yonlarida esa portlovchi moslama aks ettirilgan edi. Xatda quyidagi so‘zlar yozilgan edi:
"Yigitcha o‘yin tugadi. Ulgursang onang va sevgilingni qutqar. Ular shu manzilda ***" Shohzamon ofisdan yugurib chiqib mashinaga o‘tirdi
nima oyim, Farida Usmonova oyimmi? Nahotki? Ozgina sabr qilinglar, men sizlarni albatta qutqaraman...Shohzamon mashinani juda yuqori tezlikda haydab borardi. U shahar tashqarisiga chiqib, tog‘ qo‘ynida joylashgan dachaga qarab ketayotgan edi. U dachaga yetay deb qolganida dacha portlab ketdi
yo‘o‘o‘q **#Yollanma_Qotil**

**#Muallif_Mohira_Ikromovna**

**#N_20**

Oradan 1 yil o'tdi.
-janob, mana hujjatlar
□rahmat, ha bugungi barcha majlislarni bekor qil, mening muhim ishim bor
-xo'p bo'ladi...kotiba xonani tark etdi. Shohzamon boshini stolga qo'yib, ko'zlarini yumdi
□bugun meni tashlab ketganlarizga 1 yil bo'ldi. Oyi...u Farida Usmonovaning suratini qo'liga oldi...sizni endi topdim deganda yo'qotdim. Suratingizni ilk ko'rganimda yurak sezgan ekanda. Shu sababli sizga o'limni ravo ko'rolmagan ekanmada oyijon. Senchi...Oygulning suratini olib...o'sha kuni menga so'nggi bor qarayotgandek qaraganding. Sezgan ekansan, nega 1 og'iz ketmang demading...Shohzamon suratlarga yana biroz tikilib o'tirdi. Keyin suratlarni avaylab cho'ntagiga solib qo'ydi va ofisni tark etdi. U ofisni 1 yil davomida kengaytirgan, ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan edi. U mashinani gul do'koniga haydadi. Do'kondan 2 ta guldasta olib, qabristonga bordi. Qabristonda yonma yon turgan 2 qabr oldiga o'sha gullarni qo'ydi
□ko'nikolmayapman. Hammasini yakunlab albatta yonlarizga boraman. Bizga shu kunlarni ravo ko'rganlardan albatta qasos olaman...Shohzamon ularning qabri yonida anchagacha qolib ketdi. Ketish oldidan ularning ruxi orom topishi uchun tilovat qildi. Qabristondan chiqib Oygul bilan yashagan o'sha uyga bordi. Eshikni ochib, uyga kirarkan nogoh oshxona tarafga qaradi, chunki har kelganida Oygul oshxona tarafdan chiqib kelardi. Shohzamon ishda paytlari nimalardir pishirish bilan vaqtini o'tkazardida
□Oygul. Seni juda sog'indim...u o'zini divanga tashladi. Ko'zlarini yumdi. Ko'z oldida 1 yil oldingi voqealar jonlana boshladi.

1 yil oldin.
Shohzamon portlashni ko'rib mashinani to'xtatib, qalbim_dunyochasi tushdi va
□yo'o'o'q□. Oyi□. Oygul□...shu payt uning telefoni jiringladi. Javob berdi
□□□
-kuyov to'ra to'y sovg'am yoqdimi□...narigi tarafdan Ravshan Botirovichning yoqimsiz kulgusi yangradi
□o'ldiraman seni maraz
-shoshilma yigitcha
□sen yana kim bo'lding
-Qodir Tohirov. Seni o'gay dadajonim o'g'lim
□meni o'g'lim dema it
-biz bilan o'yin o'ynashni oqibati shunaqa bo'ladi yigitcha
□o'yin o'ynash qanaqa bo'lishini endi ko'rasizlar...Shohzamon telefonni o'chirib qo'ydi. Qarshisida dacha yonib kulga aylanmoqda edi.

@qalbim_dunyochasi **#Yollanma_Qotil**

**#Muallif_Mohira_Ikromovna**

**#N_21**

O'sha kuni dachadan, kuyib ketgan 2 ta jasad topildi. Shohzamon ko'zida yosh bilan ularni tuproqqa qo'ydi. U bosh olib ketmoqchi ham bo'ldi, ammo, oyisi va Oygulning joniga qasd qilganlardan qasos olish uchun ham shu yerda qoldi.

**Hozirgi kun.**
**Shohzamon uyda biroz qolgach, u yerni tark etdi. Hozirda u boshqa uyda yashamoqda. Boshqa boylar kabi 2 qavatli, hashamatli hovlisi bor**
**-xush kelibsiz xo'jayin**
**□meni kim so'rab kelishidan qatinazar yo'qman...Shohzamon xonasiga yo'l oldi. Xonaga kirishi bilan yuvinish uchun kirib ketdi. Xuddi shu paytda uyga Guli (Oygulning o'gay onasi) kirib keldi**
**-xush kelibsiz, sizga kim kerak**
**-menga Shohzamon kerak**
**-xo'jayin uyda yo'qlar**
**-eee ko'p gapirma, boya uyga kirib ketganini o'z ko'zim bilan ko'rdimku...Guli shunday degancha 2-qavatga ko'tarila boshladi**
**-xo'jayin ko'rsa bizga gap tegadi, chiqing uydan...xizmatkor ayol Gulini to'xtatish uchun qancha harakat qilmasin foydasi bo'lmadi. Ularning shovqiniga xammom xalatida Shohzamon chiqib keldi**
**□bu yerda nimalar bo'lyapti? Qumri opa men sizga nima degandim**
**-janob, men ayttim, ular eshitishni xoxlamadilar...xizmatchi ayol aybdorona bosh egdi**
**□mayli ishizni qilavering...xizmatchi ayol ketdi...bu yerga nega kelding**
**-siz bilan gaplashib olmoqchiman**
**□nima haqida ekan**
**-kelishuv taklif qilmoqchiman**
**□mening qimmatli vaqtimni olishingga arziydi degan umiddaman...Shohzamon xonaga qaytib sochini sochiq yordamida qurata boshladi**
**-albatta arzidi. Ammo oldin, menga vada berishingiz lozim**
**□oldin kelishuvni ayt**
**-men sizga Ravshan Botirovich Oydin Saidovani qanday o'ldirganini aytaman**
**□keyinchi**
**-uning boyliklarini qo'lga kiritishingizda yordam beraman**
**□evaziga nima istaysan...Shohzamon Guli tomonga yura boshladi. Bundan Gulini qo'rquv bosdi va bazo'r**
**-meni yonimda bo'lishingizni... deya oldi...Shohzamon kulib yubordi. qalbim_dunyochasi Guli unga anqaygancha qarab turardi**
**□Ravshan Botirovich shuncha boylikni osongina berib qo'yadi deb o'ylaysanmi**
**-men buni uddalayman**
**□shu aytganlaringni qila olsang...Shohzamon yaqin kelib Gulini belidan qo'lini o'tkazdi va uni o'ziga tortib qulog'iga pichirladi...mana shu uyning malikasi bo'lasan...Guli bundan juda xursand bo'lib ketdi**
**-mana ko'rasiz men buni uddalayman**
**□senga ishonaman go'zalim. Endi bo'lsa meni tinch qo'y...u sovuqqonlik bilan Gulini o'zidan itardi**
**-axir....**
**□sen avval kelishuvni bajar, keyin hammasi sen o'ylagandek bo'ladi**
**-xo'p jonginam...Guli havodan bo'sa yo'llab xonadan chiqib ketdi**
**□xayosiz, fohisha.**

@qalbim_dunyochasi **#Yollanma_Qotil**

**#Muallif_Mohira_Ikromovna**

#N_22

Guli Shohzamonning so'zlaridan 7-osmonda uchardi go'yo
-u endi meniki, meniki. Endi 1 amallab, Ravshanni daf qilsam bas, hammasi tugaydi. Keyin Shohzamon akam bilan birga yashimiz.

Oygul uni tutganim uchun kechir, hammasi sizlar uchun...Shohzamon divanda yotar ekan, hayolan yana Oygul bilan gaplashardi.

♀xolajon, O'zbekistonga qachon qaytamiz...Oygul sohilga termulgancha so'radi
-hali vaqtli qizim...Farida Usmonova uning sochlarini mexr bilan siladi
♀ammo ularni...Oygulning ko'zida yosh qalqidi
-bilaman qizim, u ham seni sog'ingan. Buni ustiga men ham farzandimni juda sog'indim. Ammo hozir biz qayta olmaymiz. Bizning qaytishimiz hamma narsani ostin-ustin qilib yuborishi mumkin
♀tushundim...Oygul yana uzoq-uzoqlarga tikilganicha jim qoldi. Farida Usmonova uni yolg'iz qoldirishni maqul ko'rib, undan uzoqlashdi.
xonim, balkim qaytarmiz
-yo'q Aziz, yo'q. Men Qodirni bor bududan ayirgachgina qaytaman
Qodir Tohirov usiz ham ha demay bankrot bo'lish arafsida
-unda hali vaqti emas. Shohzamon nima qilayapti
u hozircha jim
-demak nimanidir rejalashtirgan...Aziz Farida Usmonovaning yordamchisi. O'sha kuni u Qodir Tohirov va Ravshan Botirovichning suhbatini eshitib qolgan edi. Ularning odamlari Oygul va Farida Usmonovani dachaga olib kelib, bog'lashayotganda, Aziz kirib kelib, ularni qutqargan. To'g'ri o'sha paytda ularni bog'layotgan 2tasini o'ldirishga to'g'ri qilgan. Dacha portlaganda, Azizning mashinasi ancha olisga ketib ulgurgan edi. Ular endigina Shohzamonga xabar beramiz deyishganda o'zlarining o'limi haqidagi xabarni eshitib, fikridan qaytishadi. To'g'rirog'i bu Farida Usmonovaning rejasi edi. Aziz, Farida Usmonova va Oygul o'sha kunning o'zidayoq Turkiyaga uchib ketishadi. 1 yil davomida Farida Usmonova Qodir Tohirovdan qasos olish rejasini tuzadi. Bu orada Oygul Shohzamonga bergan vadasini bajarib oyog'ini operatsiya qildirdi. Endi u oqsolanmasdi.

-joooon...Guli yotoq libosida nozlanib Ravshan Botirovichning bo'ynidan quchdi
-eshitaman Gulim...Ravshan Botirovich uning oppoq bilaklaridan silab qo'lini o'pdi
-sizdan 1 narsa so'rasam maylimi
-sen nima desang ham mayli
-mendan oldingi rafiqangiz boruuu Oydin Saidova uni qanday yo'q qilgansiz...bu savoldan Ravshan Botirovichning rangi o'chib ketdi
-bu gapni qayerdan olding...u Gulini qo'llarini siltab tashladi. Ammo Guli yana qo'lini uning qo'yniga qo'ygancha
-sizni juda yaxshi bilaman sevgilim, shuning uchun mendan yashirishga urunmang...dedi ko'zlarini suzub. qalbim_dunyochasi Uning qarashlaridan Ravshan Botirovich kulib yubordi
-sen haqiqiy ilonsan, o'zimning zaxarli iloncham...Ravshan Botirovich Gulini mahkam bag'riga bosdi
-aytib berasizmi

**-sen oldin, ko'nglimni ol, meni xursand qil**
**-siz oldin, men so'raganimni ayting, keyin men siz so'raganizni bajaraman...Guli barmoqlarini Ravshan Botirovichning bo'ynida yurguzdi**
**-qo'ymaysan iloncham qo'ymaysan. Senga shu kerakmi? Unda eshit.**

@qalbim_dunyochasi **#Yollanma_Qotil**

**#Muallif_Mohira_Ikromovna**

**#N_23**

**-bilasanmi, hamma Oydinning o'limini sirli tarzda yuz bergan deyishadi. Aslida bo'lsa umuman boshqacha bo'lgan. Uning o'limiga oddiygina mushak tortishtiruvchi dori sabab bo'lgan**
**-qanday qilib...hayron bo'lib so'radi Guli**
**-o'sha kuni Oydin shartnoma imzolash uchun shahar tashqarisidagi restoranga borishi kerak edi. Men unga ertalabki nonushtasiga qo'shib o'sha dorini berdim. Dori qabul qilingandan keyin 1 yoki 2 soatlar o'tib tasir qila boshlashi kerak deyishgandi. Oydin yo'lga chiqdi. O'sha restoran tog' yon bag'rida joylashgan edi. Oydin restoranga yaqinlashib qolganda dori tasir qilib u mashinani boshqara olmay qolgan, mashina yo'ldan chiqib ketgan va o'sha yerdagi uncha chuqur bo'lmagan jarlikka tushib ketgan**
**-shifokorlar dorini aniqlasha olishmadimi**
**-Oydinning jasadi tekshiradigan ahvolda emasdi**
**-bu ham sizga 1 yordam bo'lgan ekanda**
**-albatta jonginam, endi buyoqqa kelchi...Ravshan Botirovich Gulini o'ziga tortdi**
**-shoshmay turing men chiroqni o'chiray...Guli shunday deya chiroqni o'chirish bahonasida stol ustidagi guldon yoniga bordi. U guldon yoniga kamera qo'ygan edi. Kamerani olib, yashirib qo'ydi va chiroqni o'chirib joyiga qaytdi. Ravshan Botirovich hech narsani sezmadi ham.**

**-Aziz sen, O'zbekistonga qaytasan**
**-xo'p bo'ladi xonim**
**-turk biznesmeni niqobida Qodir bilan shartnoma imzolaysan. Men aniq bilaman u qora dori biznesida bor**
**-tushunarli xonim. Men bugunoq O'zbekistonga uchaman...Aziz shunday deya uyni tark etdi**
**♀xolajon, biz qachon qaytamiz**
**-oz qoldi qizim, oz qoldi.**

**Shohzamon uyida nonushta qilib o'tirar ekan, o'z uyiga kirib kelgandek bezbetlarcha Guli kirib keldi**
**-hayrli tong sevgilim**
**(sen kelguncha hayrli edi fohisha)**
**-men vadamning 1 qismi bajardim...u shunday degancha kechagi kamerani Shohzamonning**

oldiga qo'ydi va taklifsiz dasturxonga o'tirdi...menga bitta qahva...xizmatchi ayol hayron qarab turardi. qalbim_dunyochasi Shohzamon unga qarab boshini qimirlatib qo'ygach borib Guli uchun qahva olib keldi
bu nima
-bu yerda Oydin Saidovaning o'limi sabablari aks ettirilgan
u tan oldimi
-albatta, meni bilasizku...Guli ko'zlarini suzib, nozlandi
qoyil, men senga ishonmagandim. Ammo uddalading. Endi qolganini ham uddalasang, men ham vadamni bajaraman...Guli o'rnidan turib Shohzamonni quchoqlab oldi
-sizni sevaman....Shohzamon Gulini o'ldirib qo'ygisi kelsa ham, hozircha unga chidashga majbur edi. Uning sevgi izhoriga javoban jilmayib qo'ya qoldi.

@qalbim_dunyochasi **#Yollanma_Qotil**

#Muallif_Mohira_Ikromovna

#N_24

Aziz shu kunning o'zidayoq O'zbekistonga qaytib keldi. Qiyofasini o'zgartirib soxta ism bilan Qodir Tohirovning oldiga shartnoma taklif qilish uchun bordi. Albatta IIB bilan hamkorlikda ish olib borayotgan edi
-janob, siz bilan uchrashishmoqchi ekan...Qodir Tohirovning kotibasi xonaga kirib keldi
-kim ekan
-o'zini Samig' Aktash deya tanishtirdi
-kirsin...kotiba chiqib ketib mehmonni boshlab keldi
-assalomu alaykum...Qodir Tohirov o'rnidan turib, mehmonni kutib oldi
assalomu alaykum...Samig' Aktash aslida Aziz edi...Qodirbey yaxshimisiz
-meni taniysizmi
ha, sizni juda tajribali biznesmen deb eshitganim uchun Turkiyadan uchib keldim
-juda yaxshi, bu shartnomadan menga nima foyda...Qodir Tohirov shubha bilan qarshisidagi yigitga qaradi
foyda. Juda yaxshi savol berdingiz Qodirbey. Aytaylik men istaganimga erishaman, siz bo'lsa katta pulga...pul so'zini eshitib Qodir jonlandi. Axir unga hozir pul kerak
-xo'sh men sizga qanday ishonay...shunda ham sir boy bermadi
men sizga oldindan avans beraman...Samig' Aktash (Aziz) cho'ntagidan chek daftarchasi chiqarib, unga chek yozib berdi. Qodir Tohirov unga yozilgan raqamni ko'rib esdan og'ay dedi. Chunki unda yozilgan summa juda katta mablag' edi. Xolbuki bu avans. Ish bitgach kamida yana shuncha mablag'ni qo'lga kiritsa, hamma qarzlarini yopadi. Kamiga qo'lida yana biroz pul qoladi
-roziman. Men nima qilishim kerak...Qodir Tohirov qanday rozi bo'lganini o'zi ham bilmay qoldi. Ex, pul odamlarni nima qilmaydi deysiz.


Farida Usmonova ish deyarli bitdi
-xursandman, biz ham tez kunlarda qaytamiz
xo'p. O'zim sizlarni kutib olaman

**senga bitta topshiriq bor**
**-qanday....Guli Shohzamonning ofisiga ham kelgandi**
**senga bir nechta hujjat beraman, ularga Ravshan Botirovichning imzosi kerak**
**-uning mol mulkini o'zingizning nomingizga o'tkazmoqchimisiz...Guli unga hayron bo'lib qaradi**
**mening mol mulkim o'zimga yetadi, qalbim_dunyochasi bu hujjatlar mol mulk masalasi bo'yicha emas qo'rqma, mol mulk senga qoladi...Shohzamon soxta tabassum qildi**
**-raxmat sevgilim...Guli o'ziga yarashmagan erkalik bilan javob berdi.**

**-Oygul**
**♀labbay xolajon**
**-tayyorlan, ertaga O'zbekistonga qaytamiz**
**♀voy rostanmi....Oygul yosh boladek xursand bo'lib ketdi.**

@qalbim_dunyochasi **#Yollanma_Qotil**

**#Muallif_Mohira_Ikromovna**

**#N_25**

**Guli hujjatlarni olib, uyga qaytdi. Endi unga imzo qo'ydirsa bo'ldi. Keyin hammasi tugaydi. Shohzamon bilan bo'lishiga ozgina qoldi. Guli shularni o'ylab shirin hayollarga berildi.**

**Qudratbey, mening yukimni O'zbekistonga kiritib bersangiz bo'ldi. 1 ta mashinagina yukim bor**
**-siz bundan xavotir olmang Samig'bey. Yukingizni betalofat O'zbekistonga kiritib beraman. Menga ishonsangiz bo'ladi**
**(ahmoq, o'zingni bo'yningga o'zing sirtmoq bog'layapsanu, bundan bexabarsan. Pul topib, aql topmaganlar deb sandaqalarni aytsa kerakda)**

**-qizim tayyormisan**
**♀albatta xolajon, nihoyat qaytayapmiz**
**-albatta qizim, qaytayapmiz...Farida Usmonova va Oygul aeroportga yetib kelishdi. Tekshiruvlardan o'tib, samalyotga chiqishdi va o'z joylarini egallashdi.**

**Ravshan Botirovich bugun uyga mast ahvolda kirib keldi**
**-keldingizmi...Guli uni tabassum bilan kutib oldi...voy ichdingizmi, xo'sh nimani nishonlab ichdingiz**
**-bitta, og'aynimni tug'ilgan kunini nishonladik sevgilim...Ravshan Botirovich Gulini quchoqlab oldi**
**-sevgilim, haligi 1 nechta qog'ozlarga imzoyingiz kerak eka, uyga jo'natishibdi. Shuni imzolab qo'yasizmi**
**-hozir shu shartmi...beo'xshov tirjaydi**
**-hada, qalbim_dunyochasi axir keyin ikkalamizning ham esimizdan chiqib ketadida...Guli**

ko'zlarini suzib, Ravshan Botirovichning bo'yniga qo'llarini tashladi
-mayli olib kel o'sha lanati qog'ozlarni...Guli yugurib borib, bugun Shohzamon berib yuborgan qog'ozlarni olib kelib, Ravshan Botirovichga imzolatib oldi. Yelkasidan tog' ag'darilgandek bo'ldi. Ertaga hammasidan qutiladi va Shohzamon bilan bir umr birga bo'ladi.

Erta tong.
Oygul va Farida Usmonova O'zbekistonga yetib keldi.

@qalbim_dunyochasi **#Yollanma_Qotil**

**#Muallif_Mohira_Ikromovna**

**#N_26**

Qodir Tohirov yukni chegaradan o'tkazishni vada berib, erta tongdan chegara yaqinida o'ralasha boshladi. Samig' Aktash yani Aziz unga chinni buyumlar olib kelganman deb ishontirdi, ammo, yuk mashinasida anchagina qora dori bor edi. Tabiiyki, bundan IIB xodimlarining ham xabari bo'lib, ular hozircha, Qodir Tohirovga tegishmayotgan edi. Ular Qodir Tohirov yukni qabul qilib oldim, deb imzo qo'ygachgina uni qo'lga olishni rejalashtirgan edilar.

Guli ertalab juda a'lo kayfiyatda uyg'ondi. Yonida ayiqqa o'xshab uxlab yotgan Ravshan Botirovichni ham uyg'otmasdan nonushta qildi. Keyin o'ziga obdon oro berdi va kecha imzolatgan qog'ozlarini olib, Shohzamonning yoniga shoshdi. U Shohzamonning uyiga kirib kelganda, Shohzamon endigina ishga ketish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan edi
-hayrli tong sevgilim...Gulini uni ortidan kelib quchdi
□senga ham...istamaygina javob berdi va uning qo'llarini sekingina itarib qo'ydi
-bu nima qilganiz, axir men siz uchun harakat qilsamu, siz meni o'zizdan itarsangiz...Gulini o'zini xafa qilgandek tutdi. Shohzamon unga tikilib turdida
□bu harakatlaring faqat men uchunligiga negadir shubham bor
-albatta siz uchun, chunki sizni sevaman
□sevgingga qanday ishonay...hamon Gulidan ko'z uzmasdan gapirardi
-nima qilsam ishonasiz
□kechagi hujjatlar...Shohzamon qo'lini Guli tarafga uzatdi. Guli sumkasidan kechagi hujjatlarni olib, unga uzatayotib
-bu nima ekanligini bilsam bo'ladimi
□albatta, qalbim_dunyochasi buni tez orada bilib olasan. Hozircha mana bu yerga qo'l qo'yda jim o'tir...Shohzamon unga jilmayib qo'ydi. Guli uning aytganini qilib hujjatlarni imzoladi...juda aqllisanda o'zing
-sizni sevaman...Guli Shohzamonni bag'riga bosdi. Ammo Shohzamondan hech qanday javob kelmadi. Shohzamon huddi taxtadek qotib to'g'riga qarab turardi
□Oygul□...eshik oldida ko'zida yosh bilan Oygul ularga qarab turardi...Oygul...Shohzamon Gulini siltab tashlab Oygul tomonga yurdi. Ammo Oygul uydan yugurib chiqib, 1-uchragan taksiga o'tirdi va ketib qoldi.

@qalbim_dunyochasi **#Yollanma_Qotil**

**#Muallif_Mohira_Ikromovna**

**#N_27**

**-Oygul dedingizmi...Guli Shohzamonning qo'lidan tutib o'ziga qaratdi...u o'lgan. Tushunayapsizmi u o'lgan**
**-Oygul tirik...shu payt uyga Farida Usmonova kirib keldi**
**□oyi...pichirladi**
**-siz□**
**-ha men. Nima kutmaganmiding. Yoki sen ham boshqalar singari bizni o'lgan deb o'ylaganmiding**
**-axir, axir 1 yil oldin sizlar portlab ketgan edingizku**
**-ha baxtga qarshi shunaqa bo'lishi kerak edi, buni qarangki o'lmadik**
**-bo'lishi mumkin emas, men portlashni o'z ko'zim bilan ko'rgandim...Guli hayron bo'lgancha qarshisida turgan Farida Usmonova qarab turardi.**

**Ravshan Botirivich boshi yorilgudek bo'lib uyg'ondi. Sal o'ziga kelib olish uchun endigina yuvinib chiqqandi hamki, xizmatkori uni Jinoyat tergov bo'limidan so'rab kelishganini aytdi**
**-keling xizmat...Ravshan Botirovich viqor bilan zinadan tushib keldi**
**□Ravshan Botirovich siz marhuma rafiqangiz Oydin Saidovani qasddan o'ldirganlikda ayblanib hibsga olindingiz**
**-nima□. Ofitser siz meni bekordan bekor ayblayabsiz**
**□buni tegishli joyda gaplashamiz, hozir bo'lsa biz bilan ketishingizga to'g'ri keladi.**

**Qodir Tohirov yuklarni qabul qilib olganligi haqidagi tilxatga imzo qo'yib, endigina yuk mashinasiga o'tirib ketmoqchi bo'lganda IIB hodimlari uni qo'lga olishdi**
**-nega tushunmaysiz, bu yuklar meniki emas**
**□ammo yukni siz qabul qilib olgansiz**
**-bu yuklar Samig'....Samig' Aktash degan odamniki. U mendan iltimos qilgani uchun yordam berayotgan edim...Qodir Tohirov qancha o'zini oqlashga harakat qilmasin barcha dalillar unga qarshi edi.**

**□nega shu paytgacha tirik ekanliklarizni mendan yashirib keldingizlar**
**-buni o'ziga yarasha sabablari bor. qalbim_dunyochasi Hozir sen Oygulni yoniga bor, uni yupat**
**-nima...Guli o'rnidan turib Shohzamonga yopishdi...hech qayerga bormisiz, siz menga vada bergansiz**
**□qoch yo'limdan...Shohzamon uni siltab tashlab ko'chaga chiqib ketdi.**

@qalbim_dunyochasi **#Yollanma_Qotil**

**#Muallif_Mohira_Ikromovna**

**#N_28**

**Shohzamon Oygulni hamma joydan izladi. Ammo uni topa olmadi. Oxiri 1 yil oldin birga borgan parkiga bordi. Parkka kiraverishdagi o'rindiqda yig'lagancha Oygul o'tirardi. Shohzamon ham borib uning yoniga o'tirdi**
**□sen vadangda turmayapsan**
**□♀siz ham vadangizda turmadingiz**
**□men bilmagandim**
**□♀shuning uchun Gulini bag'rizga bosib turgandingizmi**
**□rashk qilayapsanmi...Shohzamon kulib Oygulga qaradi**
**□♀hechamda□. Boring istaganizni bag'rizga bosib yuravering**
**□chindan ham shunaqa qilsammikin□**
**□♀yaramas...Shohzamon Oygulning qo'lidan tutdi**
**□menga sendan o'zgasi kerakmas. Sensiz 1 yil qanday yashaganimni xatto tasavvur qila olmaysan. Seni juda sog'inganman...Shohzamon Oygulni sekingina bag'riga bosdi**
**□♀meni kechiring, sizga vaqtida ayta olmadim. Xolam bu hammamiz uchun xavfli bo'lishi mumkin dedilar**
**□to'g'ri aytibdilar. Endi uyga yur. Qolganini uyda gaplashamiz...Shohzamon va Oygul xursand holda uyga qaytishdi**
**-□□□qoyil janob Shohzamon...Guli hali ham ketmagan ekan**
**□haliyam ketmadingmi**
**-biz boshqacha kelishgandik**
**□meni rejam boshidan shunday bo'lgan**
**-men osonlikcha voz kechmayman**
**□ammo boya osonlikcha ko'p narsadan voz kechding. Ha aytgancha Ravshan Botirovichning qilmishiga sherik bo'lganliging haqidagi tilxatni ham imzolading**
**-bunday qilolmaysan□...shu payt IIB hodimlari kirib kelishdi va Gulini olib ketishdi. Chunki o'sha portlatilgan dala hovli Gulining nomida bo'lgan. Guli imzolatgan hujjatlarga keladigan bo'lsak, qalbim_dunyochasi ularning birida Ravshan Botirovich nomidagi barcha mol mulkni bolalar uylariga o'tkazganligi to'g'risida yozilgan edi. Yana birida qilgan qilmishlarini tan olganligi haqidagi tilxat, yana birida Oygul va Farida Usmonovani qasddan o'ldirishga urunishlarida rafiqasi Guli Ergashevaning ham aybi borligini tasdiqlovchi tilxat edi. Guli boya o'sha tilxatni imzolagan edi.**

@qalbim_dunyochasi **#Yollanma_Qotil**

**#Muallif_Mohira_Ikromovna**

**#N_29**

**Bugun Sud.**
**Ravshan Botirivich, Qodir Tohirov va Guli Ergashevalarning sudi. Sudda ular ayblarini qanchalik inkor qilishmasin, hamma dalillar unga qarshi edi. Guli Ergasheva 7 yilga, Qodir**

**Tohirov va Ravshan Botirovichlar 15 yilga ozodlikdan mahrum qilindilar.**
**Haqiqatlar qaror topdi. Oygul haqiqiy otasi bilan uchrashdi. Oygulning otasi O'zbekistonga qaytganidan foydalanib, Farida Usmonova sovchilikka bordi. Kattalar yoshlarning ko'ngliga qarashdi.**
**Bugun ikki qalb baxtdan samolarda 1 juft oq kabutardek parvoz qilmoqda.**
**bugun judayam go'zalsan**
**♀hammasi sizning mexringiz tufayli**
**men bunaqa taqdirni xatto orzu ham qilmagandim. Juda baxtliman...Shohzamon yonida oppoq kelinlik libosida o'tirgan suyuklisining qo'lidan o'pib qo'ydi**
**♀faqatgina siz emas, men ham baxtliman. Biz baxtlimiz...ular bir biriga qarab kulib yuborishdi. 1 chetda ularga qarab turgan Farida Usmonovaning sevinchdan ko'zlari yoshlandi.**
**Ularning to'ylari juda ajoyib o'tdi. Kelin va kuyov o'z to'yida mazza qilib raqsga tushishdi. Buni kimdir tanqid qildi, kimdir ularga havas qildi, kimdir xasad. Ammo ular uchun o'zgalarning nima deb o'ylashi muhim emasdi. Bugun ularning kuni.**

**Shohzamon bolalar uyida tarbiyalangan yigit. Bolalar uyidagi bolalarni hayot tarbiyalaydi. qalbim_dunyochasi Ular qanday bo'lmasin bu hayotda yashashga, qaysidir ma'noda o'z o'rnini topishga intilishadi. Ba'zilari ulardan voz kechgan ota-onalari sabab alamzada, odamlardan nafratlanadigan bo'lib ulg'ayishadi (albatta bu mening shaxsiy fikrim). Balkim Shohzamonning qotil bo'lishiga shu ham sabab bo'lgandir. Ammo u Oygul sabab o'zgardi.**

**Oygul 1 oyog'i oqsoq nogiron qiz. Shu nuqsoni sabab, o'zidan uyalib kelgan. O'gay ota ona qo'lida turtkilana turtkilana katta bo'lgan qiz. Mol dunyo sabab o'gay ota uni odam yollab o'ldirtirib yubormoqchi bo'ladi. Uning birgina shu xatosi ( u uchun xato, ammo Oygul uchun baxt desak to'g'ri bo'ladi ) ko'p sirlarning ochilishiga turtki bo'ldi.**

**Hikoyaning yakuni juda oddiy bo'lib qolgani kimgadir maqul kelmas, bunisini endi bilmadim. Hikoyaning mazmuni oddiygina "Mol dunyo hech kimga vafo qilmagan". Afsuski oramizda Ravshan Botirovich, Qodir Tohirov va Guliga o'xshaganlar bor. Bunaqalarning taqdiri ham hal. Hikoyadan xulosa o'qiganlarning o'zlariga havola. Hikoyadagi kamchiliklar uchun ming bor uzr. Chunki men oddiygina havaskorman. O'qiganlarga katta raxmat. E'tiborlaringiz uchun ham alohida tashakkur.**
**Tamom.**

@qalbim_dunyochasi